XITOY DRAMATURGIYASIGA FOLKLORINING TA'SIRI

Komilova Shaxnoza Turobiddinovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchi, O'zbekiston.
sh_muslima@inbox.ru
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24177697

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoy folklorining milliy dramaturgiya va teatr san'atining shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodi, mif va afsonalar, marosim qo'shiqlari, raqs va pantomimaning dramatik janrlar taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi. Xususan, «yange», «sanszyunsi», «nansi», «yuanben» va «szaszyuy» kabi janrlarning folklor an'analari bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, mumtoz Xitoy dramaturgiyasida xalqona syujetlar, milliy qadriyatlar va badiiy obrazlarning ifodalanish xususiyatlari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Xitoy folklori, dramaturgiya, xalq og'zaki ijodi, an'anaviy teatr, folklor an'analari, yange, nansi, yuanben, szaszyuy, musiqiy drama.

Abstract. This article analyzes the influence of Chinese folklore on the formation and development of national drama and theatrical art. It examines the role of oral folk traditions, myths and legends, ritual songs, dances, and pantomime in the evolution of dramatic genres. Particular attention is paid to the close relationship between folklore traditions and such genres as yangge, canjunxi, nanxi, yuanben, and zaju. The study also explores the representation of folk plots, national values, and artistic imagery in classical Chinese drama.

Keywords: Chinese folklore, drama, oral folk literature, traditional theatre, folklore traditions, yangge, nanxi, yuanben, zaju, musical drama.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние китайского фольклора на становление и развитие национальной драматургии и театрального искусства. Рассматривается роль устного народного творчества, мифов и легенд, обрядовых песен, танцев и пантомимы в развитии драматических жанров. Особое внимание уделяется тесной взаимосвязи фольклорных традиций с такими жанрами, как «янгэ», «цаньцзюньси», «наньси», «юаньбэнь» и «цзацзюй». Кроме того, исследуются особенности художественного воплощения народных сюжетов, национальных ценностей и художественных образов в классической китайской драматургии.

Ключевые слова: китайский фольклор, драматургия, устное народное творчество, традиционный театр, фольклорные традиции, янгэ, наньси, юаньбэнь, цзацзюй, музыкальная драма.

Kirish qismi: Xitoy folklori asrlar davomida yozuvchi va shoirlar uchun ilhom manbai bo'lib qilgan. Dastlab raqslar va ijrochilik san'atining uslublari bilan birga kelgan xalq qo'shiqlari, saroy she'riyati rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Xitoy folklori mif, afsona, masal, latifa, ertak va rivoyatlardan tashqari tarixiy shaxslarni tasvirlaydigan, Vatanga muhabbatni tarannum etuvchi asarlardan ham tashkil topgan bo'lib,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

matnlarda qahramonlardan xayratlanish motivlari, mehnat mahoratiga ijobiy baho berish, mahalliy an'analar, urf-odatlar, kundalik hayotning turli qirralari aks etgan.

Barcha xalqlardagi kabi folklor meros Xitoy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U kelajak avlodga qadimiy davr insonlari, ularning yashash tarzi, uy-fikrlari, ma'naviyat olami haqida ma'lumot beradi. Ushbu makolada xitoy dramaturgiyasiga folklorning ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Sharqda esa drama san'atining rivoji o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Hindistonda melodning birinchi ming yilligida, Yaponiyada X-XI asrlarda, XIII-XIV asrlarda qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblangan Xitoyda drama to'liq janr sifatida shakllanib bo'ldi.

XIII asr Xitoy dramaturgiyasining taniqli vakillari Guan Xan Sin (关汉卿), Van Shi Fu (王实甫), Bay Pu (白朴), Ma Ji Yuan (马致远) va boshqalarning dramatik asarlari bugungi kunda ham o'z qadr qiymatini yo'qotmagan. Bu ijodkorlar bizni keyinchalik mumtoz degan nom olgan va xitoy madaniyati ravnaqi tarixida alohida o'rin tutgan, uning birmuncha demokratik janrlaridan bo'lgan xitoy dramaturgiya va teatrining o'sha davrdagi ravnaqi bilan bog'laydi. XIII asrda, mo'g'ul bosqinchilari tomonidan xitoy milliy san'ati qattiq ta'qib ostida bo'lgan bir davrda, teatr va dramaturgiya yetakchi janrlardan biri bo'lib qoldi. Mo'g'ullar xukumronligi davrida teatr o'ziga xos faoliyati bilan ozodlik g'oyalarining badiiy targ'ibotida birmuncha ta'sirchan vosita edi. Lekin, ilg'or g'oyalarning ommalashuvi xalq uchun yanada qulay va tushunarli badiiy shakllarni topishni talab qilar edi. Teatr san'ati manbalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Insoniyat jamiyati ravnaqining birinchi bosqichida, xayvonlar va qushlar ovi inson uchun tiriklikning zaruriy omili bo'lgan bosqichda tabiatga va xayvonlarga sig'inish qaror topgan. Xitoyda qadimgi davrida xayvonlarga sig'inishning ilk shakli o'yinlar va raqslarda o'z aksini topgan. Insoniyat jamiyatining qadimgi davrida yuzaga kelgan raqslar bo'lg'usi saxnaviy xarakatlarning ilk elementlari bo'lib, qoyalarga ishlangan tasviriy suratlarda bizgacha nafaqat «tovus va qoplon», «baliq va ajdarxo» raqslari, balki raqsga tushayotganlar libosining (tovus, qoplon, ajdarxo niqoblari) suratlari ham yetib kelgan. Xitoy ko'chalari va maydonlarida bayramlarni «tovus», «ajdarxo» raqslari, «arslonlar kurashi» va boshqalarni mumtoz raqs ustalari ijrosida ko'rish mumkin. Raqs san'atining o'ziga xosligi insonga nafis xarakatlar bilan o'z xis-tuyg'ularini ifodalash, turli siymolar saxna ko'rinishlarini yaratish imkonini berdi.

Asosiy qism: Qadimgi xitoyda raqslar barcha marosimlar va udumlarning eng muhim qismini tashkil etgan. Xech bir katta bayram o'z manzaralariga ko'ra bir-biridan qisman farq qilgan raqslarsiz o'tmagan. Raqs tushayotganlar qo'llaridagi buyumlar raqs ramzi bo'lib xizmat qilgan. Masalan, xarbiy raqslarda raqqoslar qo'llarida qilich va qalkon ushlaganlar, oddiy fuqarolar raqsi bo'lsa ularning qo'llarida nay va qushlar pati bo'lgan. O'sha davrdayoq musiqa xitoy xalqining teatr mo'jizalarining asosi xisoblangan. Qadimda vujudga kelgan Xitoy raks san'ati ma'lum ma'noda Xitoy teatri ravnaqining xususiyatlarini belgilab bergan.

Xitoy drama san'ati rivojlanishiga mehnat qo'shiqlari - «yange»lar[1] katta ta'sir ko'rsatgan. «Yange» dehqonlarning mehnati jarayonida kuylangan. Keyinchalik «yange» dam olish kunlari va katta bayramlarda xam ijro etila boshlangan. Sekin-asta syujet muloqotlari kichik pesalarga aylana boshlaganidek, raqslarning ifodali vositalari rivojlanishida murakkab syujet pantomimalar yuzaga keldi. Qo'shiqlarning dolzarb mavzulari musiqiy xarakatlarning aniq tasvirlari «yange»ni sevimli tomoshaga aylantirdi. Yangi zamonaviy «yange» XIX asr oxirlarida yuzaga keldi. U xalq san'atining va musiqiy bezalishining murakkab turidir. Yangilari bilan bir qatorda «yange»ning eski shakllari - «yange qo'shiq, yange raqs, yange kichik dramatik saxna, yange pantomima»lar xam rivojlana bordi. Insoniyat jamiyati

[1]"Янгэ" шоли униши билан боғлиқ қўшиқлар

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tongida tug'ilgan raqs, musiqa, qo'shiq Xitoy sahna san'atining ilk manbalari bo'ldi. Raqs, musiqa va qo'shiq marosimlar ko'rinishlari doirasida, udumlar murakkablasha borgan sari sahnadagi voqealarning boshqa komponentlari bilan boyib boradi va sekin-asta mustaqqil tomoshaga aylandi. Buni ko'proq urug'-qabila munosabatlari barxam topib, quldorlik munosabatlari shakllanish davrida yuzaga kelgan topinish udumlari rivojlanishi misolida kuzatish mumkin. Inson nafaqat o'zini urab turgan tabiat qudratini, balki o'z kuch-quvvatini, saloxiyatini xam xis qildi. Endi insonga topinish, ya'ni ajdodlarga sig'inish paydo bo'ldi.

Qadimiy ma'naviy qadriyatlar va yodgorliklarni taxlil etish jarayonida Xitoy xalq tomosha san'ati vujudga kelgan va bu o'z rivojlanishi davomida bulg'usi saxna ko'rinishlari uchun umumiy qonunlarga asos bo'lib xizmat qilgan. Tan davri nazmi va nasrining taniqli vakillari Li Gunszo, Yuan Chjen novellalari hamda Du Fu, Bo Szyuy va boshqa ko'plab shoirlar asarlarining syujetlari shu davr dramalarida o'z aksini topgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimidek, Xitoyda dramaning paydo bo'lishi turli adabiy va qo'shiq-musiqiy shakllarning, shuningdek, xalq, marosim va saroy ijrolarining uzoq rivojlanishi bilan kechdi. Chjou davridan (miloddan avvalgi XII—III asrlar) ham raqslar, pantomimlar va saroy masxarabozlarining chiqishlari haqida ma'lumotnomalar mavjud bo'lib, bu davr oxiriga kelib "baysi" (yuzta o'yin)ning sirk tomoshalari mavjud bo'lganligi xaqida aytib o'tilgan. Tan davriga kelib esa bunday qo'shiq va raqs shakllari bilan bir qatorda "sanszyunsi" janri, ikki aktyor tomonidan ijro etilgan komikslar, improvizatsiyalangan sahnalar paydo bo'ldi. Shaharliklarning sezilarli o'sishi bilan ajralib turadigan Sun darida (X-XIII asrlar) shahar axolisi orasida teatr tomoshalarining har xil turlari, jumladan qo'g'irchoq teatri va soya teatri mashhur bo'lib ketdi. Sanszyunsi (satirik va komedik xarakterdagi pesa-dialoglar) janri asosida yuzaga kelgan "xuaszisi" (xajviy saxnalar) janrida satira elementlari mavjud bo'lgan.

Qo'shiq va raqs sahnalari asosan tarixiy mavzularda yozilgan yirik shakldagi musiqiy va she'riy asarlar (dasyu, chjuanta, syuypo) asosida ijro etilgan. Shu davrlarda yana "guzitsi va jugundyao" qo'shiq-ibora janrlari xalq orasida keng tarqalgan edi. "Chjugundyao", "guzitsi" kabi Xitoy teatrining ham adabiy, ham musiqiy-melodik asoslarining shakllanishiga bevosita folklor ta'sir ko'rsatgan, shuningdek, dramaning adabiy janr sifatida shakllanishiga xam ta'sir ko'rsatgan.

XII asrda Xitoy Janubi-sharqida nansi dramatik janri folklor asosida vujudga keldi va unda Xitoy musiqiy drama xususiyatlari aniq namoyon bo'lgan. Shu bilan birga mamlakat shimolida, Sin sulolasi hukmronligi davrida, asosan, "nansi"ning musiqiy va she'riy asosida farq qiluvchi "Yuanben"drama janri paydo bo'ldi. "Yuanben" janri she'riy ariyalar bilan prozaik diologning uyg'unligi, belgilangan tasvir-niqoblar, o'zgaruvchan kuylarning muayyan sxemalari mavjudligi bilan ajralib turadi. Ularda beshtagacha personaj ishtirok etgan va bir-biri bilan mutlaqo bog'lanmagan ikki-uch qismdan iborat bo'lgan. Shu tariqa "szaszyuy" va "yuanben" matnlarni paydo bo'lishi kuzatilgan, biroq bu matnlar saqlanib qolinmagan bo'lsada, xozirgi kunga qadar mingdan ortiq szaszyuy va yuanbenlarning nomlari ma'lum. Ular asosan oxang va qisman til xususiyatlarida farqlanadi. Shimoliy drama odatda kat'iy talablarga rioya qiladi. Bizgacha yagona saqlanib qolgan namunalarga qaraganda, XII-XIII asrlardagi "siven" (戏文) (teatr matni) asosan kundalik mavzularda yozilgan. Mualliflar nomi esa deyarli noma'lum. Shu tarika xitoy adabiyotida drama janri rivojida birinchi juda xam erkin shakldagi, ya'ni "siven"(戏文) (teatr matni) yoki "nansiven" (南戏文) –"janubiy siven" (janubiy teatr matni) deb nomlangan janr yaratilgan. Bu janrning ayrim xususiyatlari xozirgi xitoy janubiy teatri va dramalarida saqlanib qolgan, ya'ni qo'shiq kuylash (ariya), prozaik dialog va pantomimolarning (raqs) birga kelishi yaqqol ko'rinib turadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Yuan sulolasi xukumronligi davri XIII-XIV asrlarda dramaning "siven" janri yangi "szaszyuy" (杂剧)[2] janriga aylantirildi. Bu dastavval Shimoliy xitoyda paydo bo'lib tez orada «siven»ni ikkinchi o'ringa tushirib kuydi va nafaqat shimolda, balki janubda xam rivojlana boshladi.

Xitoy ma'naviy madaniyatida X-XIII asrlarda san'at asarini tushunishga qodir tomoshabinlar paydo bo'ldi, ya'ni san'at-o'zini tushunuvchi, go'zallikdan zavk oluvchi xalqni, tomoshabin vujudga keldi. San'atning aralashma turi-dramaning vujudga kelishida rivojlangan musiqa madaniyati, voizlik san'ati, ommaviy sig'inish marosimlari, xalq tomoshalari va imperator saroyidagi oliy tabaqalar uchun sahna tomoshalari zarur bo'ldi.

XIV asrning 2-yarmida "szaszyuy" pesalari asta-sekin sustlashdi, "nansi" janrida yaratilgan asarlar ko'paya boshladi va bu janr (bu paytda "chuansi" nomini olgan) Ming davrining hukmron teatr janriga aylandi (XIV-XVII asrlar). Undagi dramatik shakl "szaszyuy"ga qaraganda erkinroq, aktlar soni chegaralanmagan, ariya kuylochilar soni tartibga solinmagan, ariyalar uchun kuy tanlash qoidalari va ularning qofiyalanishi muxim emas edi. XVI asrga kelib professional teartda kunshan maktabi mashxurlikka erishdi. Uning asoschisi aktyor va musikachi Vey Lyan-fu bo'lib, xalq musiqasi asosida shunshan oxanglarini tizimga soldi. Boshqa maktablardan farqli o'laroq, Kunshan teatri aloxida tomoshalar uchun yangi kuylar yozishni boshlagan, bu esa janrning she'riy shaklining o'zgarishiga olib keldi. Keyinchalik bu maktab xalq kuylari negizidan yanada uzoqlashib, XIX asrga kelib o'z ta'sirini yo'qotdi.

Bundan tashqari, ko'plab pesalar asosan mashhur mumtoz romanlar ("Uch podsholik", "Daryo o'zani", "G'arbga sayohat" va boshqalar.) asosida yaratila boshlanadi. Shu bilan birga repertuarda xalq afsonalari va rivoyatlar ("Lian Shan-bo va Ju Ying-tai", "Oq ilon" kabi) larni qayta ishlash ham katta o'rin egallagan. XVI asrga kelib nansi janrida faoliyat olib borayotgan kunshan maktabi mashxurlikka ega bo'la boshlaydi. Uning asoschisi, aktyor va musiqachi Vey Lyan-fu. U xalq musiqasiga asoslangan Kunshan kuylari tizimini yaratadi. XX asr boshlarida esa Xitoyda inqilobiy harakatning rivojlanishi bilan ilg'or ziyolilar e'tiborini Yevropa tipidagi realistik drama ("so'zlashuv" –"xuaszyuy" deb nomlangan) o'ziga jalb etadi. bu janrda bir qator dramaturglarning ijod namunalari davr ruxiyatini tasvirlay boshladi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi xitoyda raqslar barcha marosimlar va udumlarning eng muhim qismini tashkil etgan, dastlab raqslar va ijrochilik san'atining uslublari bilan birga kelgan xalq qo'shiqlari, saroy she'riyati rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Xitoy drama san'ati paydo bo'lishi turli adabiy va qo'shiq-musiqiy shakllarning, shuningdek, xalq, marosim va saroy ijrolarining uzoq rivojlanishi bilan kechdi. Shu tariqa turli davrlarda o'ziga xos usulblariga ega drama janrlari paydo bo'la boshladi. Tan davriga kelib esa bunday qo'shiq va raqs shakllari bilan bir qatorda "sanszyunsi" janri, XII-XIII asrlardagi "siven"(戏文), XIII-XIV asrlarda "szaszyuy" (杂剧)[3] janri, XX asr boshlarida esa Xitoyda inqilobiy harakatning rivojlanishi bilan ilg'or ziyolilar e'tiborini Yevropa tipidagi realistik drama ("so'zlashuv" –"xuaszyuy" deb nomlangan) o'ziga jalb etadi. bu janrda bir qator dramaturglarning ijod namunalari davr ruxiyatini tasvirlay boshladi.

[2]"Цзацзюй" (杂剧)жанрида бирор бир сюжэт хикоя килинади. Хикоя ария варакслрбиланбир актёр томониданижроэтилган.

[3]"Цзацзюй" (杂剧)жанрида бирор бир сюжэт хикоя килинади. Хикоя ария варакслрбиланбир актёр томониданижроэтилган.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. 中国现代文学史 1917-1997/北京/2008 年.
2. Mackerras C. The Chinese Theatre in Modern Times: From 1840 to the Present Day. – London: Thames and Hudson, 1975.
3. Dolby W. A History of Chinese Drama. – London: Paul Elek, 1976.
4. Idema W. L., West S. H. Chinese Theater 1100–1450: A Source Book. – Wiesbaden: Franz Steiner Verlag, 1982.
5. Johnson D. (Ed.). Ritual Opera, Operatic Ritual: "Mu-lien Rescues His Mother" in Chinese Popular Culture. – Berkeley: Institute of East Asian Studies, University of California, 1989.
6. Qahramon Imomnazarov. O'RTA ASR XITOY SAYYOHLARI VA ELCHILARINING ASARLARIDA MARKAZIY OSIYO TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR. (2026). Ijtimoiy-Gumanitar Sohada Ilmiy-Innovatsion Tadqiqotlar, 3(7), 74-78. https://doi.org/10.67227/tphjq211

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.